



O'ZBEK TILIDAGI SHAXS TASVIRINI IFODALOVCHI SIFATLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Jalilova Marjona Elyor qizi

mirsaidjalilov70@gmail.com

Annotatsiya; Ma'lumki, o'quv lug'atlariga, bugungi kun nazari bilan qaraganda, antropotsentrik lug'at talqinida qarash urf bo'ldi. Mohiyatan qaraganda ham, lingvotsentrik lug'atlardan farqli o'laroq antropotsentrik lug'atlar insonlar hayotiga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qilishi uchun yaratiladi.

Kalit so'zlar; leksikografik, semantizatsiyasi, orfografiya, tizimli leksikagraf, lug'at, muvofiqlik,

Olima B.Bahriddinova o'zining —O'zbekistonda o'quv lug'atchiligining nazariy va amaliy masalalari nomli monografiyasida o'quv lug'atining tavsifiy belgilari sifatida ta'limiy maqsadga yo'nalganlik, hajman chegaralanganlik, til (ona tili yoki boshqa til) o'qitish uchun mo'ljallanganlik xususiyatlarini ustuvor deb hisoblaydi. Shuningdek, ta'lim berish, ma'lumot berish, me'yorlashtirish, tizimlashtirish, muvofiqlashtirish, til o'rgatish holatlarini esa o'quv lug'atining asosiy vazifalariga kiritadi. Albatta, ko'rsatilganlar o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati uchun ham muhimdir. O'quvchilarda o'zlashma so'z haqida ma'lumot olish uchun muntazam holatda ehtiyoj mavjud bo'ladi. Lug'at bu jarayonda dastlab ma'lumot berish vazifasi bilan o'quvchini qanoatlantiradi. Me'yorlashtirishdan esa nutq jarayonida – og'zaki va yozma nutq pragmatikasida ehtiyoj sezadi. Og'zaki muloqotda ko'proq o'zlashmani to'g'ri talaffuz qilish, urg'u bilan bog'liq muammolari yuzaga chiqsa, yozma jarayonda grafik shakli muhim rol o'ynaydi. O'zlashmalardan to'g'ri foydalanish esa har ikki nutq shakli uchun ham birdek ahamiyatga ega. Bundan tashqari, muvofiqlashtirish vazifasi ham muhim sanalib, o'zlashmalar orfografiyasining imlo va izohli lug'atlarga muvofiqligi, leksikografik semantizatsiyasining o'quv, umumiy, akademik izohli lug'atlar uzluksizligiga asoslanishi kabilarda o'z ta'siriga ega bo'ladi. Olimaning yozishicha, XX asrning ikkinchi yarmida dunyo leksikografiyasida —o'quv lug'atchiligi nomli amaliy fan shakllandi. U o'quv lug'atiga —so'zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o'quv-uslubiy talabga javob beradigan, ta'lim oluvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo'ljallangan antropotsentrik vosita¹” – deb ta'rif beradi.

O'quv izohli lug'atga kiritiladigan o'zlashmalarning tanlanishi muhim jarayondir. Bu bir

¹ Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилигининг назарий ва амалий масалалари. Монография. – Қарши: Фан ва таълим. 2020. –Б. 20
www.innovativepublication.uz



tomondan, o'quvchilarning yosh darajasiga ko'ra belgilansa, ikkinchi tomondan esa, bugungi kun muloqotida o'zlashmaning aktualligi ham talab etiladi. Ayniqsa, yaratiladigan yangi o'zlashmalarning o'quv izohli lug'ati o'quvchilar uchun jozibador bo'lishi shubhasiz. O'quvchilarning lug'at so'zliklari bilan ishlash jarayonida ularni manba tildagi asosi – etimologik ma'nosiga qiyosan o'rganish kompetensiyasi shakllanadi. Yangi davr o'zlashma so'zlarining til zaxira boyligida katta miqdorga ega bo'lishi nutq madaniyatida ulardan foydalanish me'yorini ham talab etadi.

Yuqori saviyali o'zbekcha-inglizcha lug'atlarni yaratish yanada ko'proq ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz jadal taraqqiyot yo'lida ildam odimlarkan, har bir soha vakili bu borada o'z hissasini qo'shgan kabi, tilshunos-filologlarning mehnati tilimiz mavqe'i va o'rganilish (shu asnoda tanilish) darajasini yanada yuksaltirishda namoyon bo'ladi. Adib Suvon Meli bu jarayonni shunday ta'riflaydi: “Mustaqillik bizga jahon badiiy maydonida mustaqil subyekt sifatida chiqish imkonini berdi. Bu ham imkoniyat, ham katta mas'uliyat va izchil ijodiy mehnatdir. Biz endi jahonga mustaqil ma'naviy subyekt sifatida chiqishimiz zarur. “O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat” shiori buyuk ma'naviy qudratga da'vogarlikni ham o'z ichiga olishini unutmazlik lozim²”.

O'zbek madaniyati, turmush tarzi, adabiyoti, tili hamda tarixiga g'arbiy madaniyat vakillari tomonidan ko'rsatilgan sezilarli qiziqish Temuriylar saltanati davrida ko'rsatila boshlagan. Bunga elchi va taniqli sayyoh Rui Gonsales de Klavixoning “Kundalik”lari³ yorqin misol bo'la oladi. (Ushbu kundalikning Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti bitiruvchisi Ulug'bek Jo'rayev tomonidan bevosita ispan tilidan tarjima qilinib, “Zarqalam” nashriyotida chop etilishi esa juda quvonarli holat.) Kanadalik sharqshunos olimi Mariya Sabtelni³ esa Alisher Navoiy ijodi bo'yicha shug'ullangan zamondosh tadqiqotchilar safidan munosib joy olgan.

Ammo o'zbek madaniyati va adabiyoti durdonalarini o'zbek tili mutaxassisi kabi hech kim yetarlicha ustamonlik bilan o'girolmaydi. Zamondosh ustoz tarjimon I.To'xtasinov va hamkasblari boshchiligida so'nggi yillarda A.Qodiriyning “O'tkan kunlar”, Oybekning “Navoiy”, G'afur G'ulomning “Shum bola” asarlari ingliz tiliga mahorat bilan tarjima qilindi va “Kecha va kunduz”, “Yulduzli tunlar”, “Humoyun va Akbar” asarlarini ham ingliz tiliga tarjima qilib, o'zbek adabiyotining eng sara namunalarini ommalashtirish istiqbol rejalar qatoriga kiritilgan. Ustoz To'xtasinov tomonidan yaqindagina o'zbek romanchiligining g'oyatda o'tkir tilli, yuqori saviyali namunasi bo'lmish Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarining ingliz tiliga o'girilishi ham xalqimizning ulkan yutug'i bo'ldi.

Biroq o'zbek tilidan jahonning boshqa ilg'or tillariga qilingan tarjimalar ko'lamini jahon adabiyoti durdonalarining o'zbekchaga o'girilishi kabi yuqori emas. Taniqli yozuvchi

² Suvon M. Tarjima millatni jahonga tanitadi. – T., 2014. 08.02. <http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/tarjima-millatni-jahonga-tanitadi-2007>

³ Хамраева Н. Буюк соҳибқирон Амир Темур ҳориж муаррихлари талқинида. Диссертация. – Қ., 2015.
www.innovativepublication.uz



Muhammad Ali bu borada, “afsuski, iliq gaplar aytish qiyinligini, bu ish o‘z holiga tashlab qo‘yilgani va tarjimalar ham tasodifan ro‘y berayotganini” ta’kidlaydi va samarali yechim sifatida boshqa millatlar tajribasini, ya’ni xorijiy tillarga o‘girishga arzigulik o‘zbek asarlari ro‘yxatini tuzib, hukumatdan ularning tarjimasini moddiy qo‘llab quvvatlashini so‘rash lozimligini ilgari suradi⁴.

Quyida o‘zbek tilidagi shaxs fe‘l-atvorini ifodalovchi sifatlarning tarjima lug‘atlarida berilishini ko‘rib chiqib, xulosalaymiz.

Oldingi bo‘limda ingliz tilidagi shaxs fe‘l-atvorini ifodalovchi sifatlarning leksikografik talqini namunasida ko‘rdikki, sifatlarning (umuman ixtiyoriy leksemalarning) aktiv hamda passiv lug‘atlarda keltirilishini tafovutlash juda ahamiyatli mazmun kasb etadi. Chunki, har ikkala holatda lug‘at foydalanuvchisi farqli maqsadlari asosida ma’lum lingvistik operatsiyani amalga oshiradi.

Hozirgi holatimizda o‘zbek tilidagi shaxs tasviri leksemalari inglizzabon madaniyat vakillari yoki ushbu til chuqur bilimiga ega shaxslar uchun yaratilgan passiv lug‘atning birliklari sifatida muhokama qilinadi. Bu kabi lug‘atlar potensial foydalanuvchisi, shuningdek, o‘zimizning ekspatlarimiz ham bo‘lishi mumkin. Nishondagi iste’molchilar guruhi bu lug‘atga o‘zlariga kam tanish bo‘lgan o‘zbek tilidagi matn parchasi tarjimasini olib borishda murojaat etishadi. Yodda tutish kerakki, lug‘atga kiritilgan lemmalarning jamiki mavjud ma’no qirralari (tayanch hamda metaforik ma’nolari), uslubiy qo‘llanilish ma’lumoti, odatiy hosil qiladigan birikmalari juda qimmatli ahamiyat kasb etadi. Kollokatsiyalarning qiymati ingliz tili lingvistik strukturasi uchun ahamiyatliroq bo‘lib, o‘zbek tilidagi so‘zlar hosil qiladigan birikmalarida u qadar turg‘un emaslar. Ammo nishondagi lug‘atimizda shaxs tasviri leksemalari ishtirokidagi iboralarning keltirilishi maqbul sanaladi. Zero, tarjima ostidagi matnda ularning aynan iboralar tarkibidagi qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Nofaol til ko‘nikmalarida to‘g‘ri talaffuzning ahamiyati bo‘lmaganligi uchun lug‘at lemmalarining transkripsiyasiga ehtiyoj bo‘lmaydi.

Jarayon haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun, inglizzabon lug‘at foydalanuvchisi amalga oshiradigan vazifalarni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz. Bu maqsadda bir gapdan foydalanamiz:

Halol inson bo‘lishni bolaga yoshligidan singdirish kerak, toki u yolg‘on gapirish, aldash yomon ekanini bilishi kerak.

Deylik, o‘zbek tilini o‘rganayotgan inglizzabon shaxs fe‘l-atvorini ifodalovchi sifatlarni o‘zbek tilidagi tarjimasini bilmoqchi. Matndagi shaxs fe‘l-atvorini ifodalovchi sifat ishtirok etgan gapni tushunishga intilish asnosida, u uchun mazmuni notanish bo‘lgan “halol” leksemasiga duch keladi. So‘zning mazmuni butun kontekstda kayfiyatini

⁴ Muhammad Ali: 08 Февраля 2014. Tarjima millatni jahonga tanitadi. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2007 yil 13-son. <http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/tarjima-millatni-jahongatanitadi-2007>
www.innovativepublication.uz



belgilab berishi tufayli uni lug'atdan ko'rishga qaror qiladi. Ushbu so'z ishtirokidagi gap strukturasini anglagan inson, uning ma'nosi “*ro'stgoy*” sifatining ham ma'nosini ochib berishni tushunadi.

Honest [adjective]: showing uprightness and fairness; not deceitful: “**Halol** odamlar bizning jamiyatimizning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi”. Xalqimizning ommaviy siyosiy hayotida **halol** va sharif insonlarga e'tibor berish lozim.

Phrase:

Halol munosabat - Honest relationship:

"Xususan oilaviy muomala bo'lganlarda halol munosabatlar ko'p muddatli va barqaror bo'lishi kerak."

Ingliz tilidagi tarjiması: ("Especially in family relationships, it is important for **honest relationships** to be long-lasting and fulfilling.")

Shu holatda, inglizabon fuqaro tomonidan honest leksemasiga sinonim izlab qoladigan bo'lsa, quyidagi leksemalarni misol qilish mumkin: *honest, genuine, sincere, trustworthy, upstanding, virtuous, ethical, morally upright, righteous, principled*

“Halol” leksemasining lug'at mikrostrukturalari elementlariga nazar soladigan bo'lsak, uning berilishidagi eng katta mas'uliyat aniq va lo'nda izohning keltirilishi hisoblanadi. Zero, passiv ikki tilli lug'atlarga foydalanuvchi asosan ma'lum so'zning ma'nosini ko'rish yoki taxmin qilgan ma'nosi borasida ishonch hosil qilish maqsadida murojaat etadi.

“Halol” leksemasining leksikografik talqinida, shuningdek, mufassal grammatik ma'lumotni havola etmadik. Lug'at lemmasining turkumi to'g'risidagi ma'lumot bilan chegaralandik, chunki so'zning kerakli ma'nosini topsihda bu yetarli hisoblanadi. Uning so'zlar bilan hosil qiladigan sintaktik munosabatlari matn kontekstidan anglashib turadi, ammo “*halol*” shaxs fe'l-atvorini ifodalovchi sifatning odatiy birikmalarini taqdim etish maqbul hisoblanadi. Bunga sabab shuki, birinchidan ushbu birikmalarda halol so'zining ma'nolari turlicha. Shu tufayli, nishondagi so'zning matnda uchrashi mumkin bo'lgan odatiy birikmalari va ularning tarjima izohi lug'at foydalanuvchisi uchun g'oyatda qiymatli sanaladi. Bu holat, ayniqsa, kollokatsiyalar hodisasiga odatlangan inglizabon madaniyat vakillariga taalluqli.

Shuningdek, shaxs tasvirini ifodalovchi sifalar iboralar bilan funksional o'rindosh bo'lishi o'zbek og'zaki va yozma matnida juda keng tarqalgan holat. Shu boisdan, inglizabon o'quvchining o'zbek tilidagi matnlarni talqin qilish jarayonida shaxs tasviri sifatlariga duch kelish ehtimoli juda yuqori. Ushbu ehtimolni e'tiborga olib, yuqorida halol so'zi komponenti ishtirokidagi iborani ham mikrostrukturalari ma'lumotiga kiritdik.

Iboralar yoki turg'un birikmalarining tarjima jarayonidagi murakkabligi eng avvalo ularni payqash, va keyinchalik esa to'g'ri talqin qilish bilan aloqador. Iboralarning ham leksikografik talqinida (ixtiyoriy leksemalar talqini singari) mikrostrukturalari elementlari



aktiv hamda passiv lugʻat turiga qarab farqlanadi. Passiv lugʻatlar tamoyiliga asoslangan holda, ularda iboralarning mavjud maʼnolari aniq va loʻnda izohini keltiradigan boʻlsak, aktiv tarjima lugʻatlarida ekvivalentlarini taqdim etamiz. Ekvivalentlar masalasi iboralarga kelganda yanada keskinlashadi. Chunki ular tashkil etuvchi komponentlarining lugʻaviy maʼnosiga bogʻliq boʻlmagan mustaqil maʼno ifodalaydi va mana shu maʼnoni ifodalash vositalari tillararo farq qiladi. Juda kam holatlarda tashkil etuvchi komponentlari ham, mazmuni ham mutanosib boʻlgan mutloq ekvivalentlarga duch kelinadi.

Oʻzbekcha-inglizcha aktiv tarjima lugʻatlarida oʻzbek tilidagi leksemaning turkumi haqidagi maʼlumot zaruriy sanalmaydi. Uning bu turdagi lugʻatlarda keltirilishi omonimlar (turli turkumdagi soʻzlarning bir xil shaklga ega boʻlishi) masalasiga aniqlik kiritishda, soʻzning kerakli turkumdagi ekvivalentlarini topishda zaruriy hisoblangan boʻlardi. Ammo tilimiz xususiyatlari bunga ehtiyoj tugʻdirmagani sababdan hozirgi holatda bu maʼlumotning qiymati yoʻq.

Aksincha, ekvivalentlar toʻgʻrisidagi jamiki maʼlumot (fonetik, morfologik, sintaktik-stilistik) oʻta muhim sanaladi va bu maʼlumotning qanchalar aniq, sodda, ammo mufassal keltirilishi muvaffaqiyatli nutq (xoh yozma boʻlsin, xoh ogʻzaki) kompetensiyasining sharti boʻlib xizmat qiladi.

Ekvivalentlarning turkumi haqidagi grammatik axborot qimmatli hisoblanadi. Zero, tadqiqot maqsadi bevosita lugʻaviy tarjima ekvivalentlari emas, aksincha, kontekstual-funksional ekvivalentlar ekan, bunda mazmun butunligini saqlab qolishda soʻzning turkumi ahamiyatsiz. Maʼlum shaxs feʼl-atvorini ifodalovchi sifatlarning mazmuni ingliz tilidagi boshqa bir sifat, soʻz birikmasi yoki turgʻun ifoda (hatto, baʼzan ibora) vositasida ifodalanadi.

Shaxs tasvirini ifodalovchi sifatlarning bir soʻzli lugʻaviy tarjimasini keltirish aktiv tarjima lugʻatlarining funksional qiymatini yoʻqqa chiqaradi. Zero, soʻzlar tirik muloqotda alohida-alohida emas, balki maʼlum lingvistik qonuniyatlar asosida oʻzlariga maqbul boshqa soʻzlar bilan sintagmatik aloqa hosil qilgan holda mavjud boʻladi. Tabiiyki, soʻzlarning yakka holdagi va kontekstual maʼnolari farq qiladi.⁵

Ekvivalentlar mikrostrukturasida ularning talaffuzi ifodasi (transkripsiyasi) ham oʻz oʻrniga ega. Bu soʻzlovchining hosil qilgan axborotini toʻgʻri fonetik qobiqda tinglovchiga yetkazishining garovi hisoblanadi. Soʻzlarning notoʻgʻri talaffuzi ularning zamiridagi maʼnoni ham oʻzgartirishi ehtimoldan xoli emas. Bu, ayniqsa, omofonlar keng uchraydigan ingliz tili lingvistik tuzilmasiga juda tanish holat.

Yuqorida ingliz tili va oʻzbek tillaridagi shaxs feʼl-atvorini ifodalovchi sifatlarning passiv va aktiv tarjima lugʻatlarida talqin qilinishini tanqidiy-analitik nuqtai nazardan

⁵ Sinclair, J. 1991. Corpus, concordance, collocation. Oxford: Oxford University Press. Hanks, P. 2012b. Corpus evidence and electronic lexicography. In S. Granger and M. Paquot (eds.), 57-82.
www.innovativepublication.uz



ko‘rib chiqdik. Har ikkala holatda ham nishondagi lug‘at foydalanuvchisi ona tili o‘zbek tili bo‘lgan yoki o‘zbek tilining juda yaxshi bilimiga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Ko‘p hollarda tijorat maqsadida tuzilgan ikki yo‘nalishli lug‘atlar har ikkala til vakillari foydalanishiga mo‘ljallanganligi to‘g‘risida bong uriladi. Ammo amalda aynan bir til jamoasi vakillari uchun uning funksional qiymati chindan yuqori bo‘ladi. Ikki yo‘nalishli tarjima lug‘atlarining har ikkala til jamiyati so‘zlovchilariga bir xilda samarali xizmat qilishining haqiqatda imkoni yo‘q.⁶

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бахриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилигининг назарий ва амалий масалалари. Монография. – Қарши: Фан ва таълим. 2020. –Б. 20
2. Suvon M. Tarjima millatni jahonga tanitadi. – T., 2014. 08.02. <http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/tarjima-millatni-jahonga-tanitadi-2007>
3. Ҳамраева Н. Буюк соҳибқирон Амир Темур ҳориж муаррихлари талқинида. Диссертация. – Қ., 2015.
4. Muhammad Ali: 08 Феврала 2014. Tarjima millatni jahonga tanitadi. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2007 yil 13-son. <http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/tarjima-millatni-jahongatanitadi-2007>
5. Sinclair, J. 1991. Corpus, concordance, collocation. Oxford: Oxford University Press. Hanks, P. 2012b. Corpus evidence and electronic lexicography. In S. Granger and M. Paquot (eds.), 57-82.
6. Atkins, B. T. Sue (1992/3). Iheoretical Lexicography and its Relation to Dictionary-making; Dictionaries (Journal of the Dictionary Society of North America) 14: 4-43. (Reprinted in Fontenelle (2008) 31-5o.)

⁶ Atkins, B. T. Sue (1992/3). Iheoretical Lexicography and its Relation to Dictionary-making; Dictionaries (Journal of the Dictionary Society of North America) 14: 4-43. (Reprinted in Fontenelle (2008) 31-5o.)
www.innovativepublication.uz